



UDK: 811

**Madina URAZALIYEVA,**  
O'zDTU "Tinchlik yo'lida hamkorlik" markazi katta o'qituvchisi, PhD  
E-mail: [madinaurazaliyeva4@gmail.com](mailto:madinaurazaliyeva4@gmail.com)

O'zDTU katta o'qituvchisi, PhD, D.G'aybullayeva taqrizi asosida

## ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI KITOBXONLAR INTERPRETATSIYASINI TAHLIL QILISH TAMOYILLARI

Аннотация

Ushbu maqolada onlayn platformalarda kitobxonlar tomonidan yaratilayotgan sharhlar, fikrlar, izohlar va o'zaro muhokamalarni tahlil qilish tamoyillari yoritiladi. Tadqiqot digital ijtimoiy o'qish (DSR), Retseptiv poetikanazariyasi, foydalanuvchi yaratgan kontentni kompyuter lingvistikasi asosida qayta ishlash va onlayn izohlarning semantik, affektiv hamda narrativ xususiyatlarini aniqlashga asoslanadi. Maqolada Goodreads, Wattpad, onlayn yangilik platformalari kabi maydonlarda shakllanadigan o'quvchi tajribalarining strukturalashuvi, interpretativ jamoalarning shakllanishi, izohlarning emotsional dinamikasi va ularni tahlil qilishning kompyuterlashtirilgan usullari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida kitobxon talqinlarini o'rganishda kontent-analiz, diskurs tahlili, sentiment-analiz, narrativ tarmoq modellari va chuqur o'rganishga asoslangan klassifikatsiya metodlarining samaradorligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Digital ijtimoiy o'qish, kitobxon talqini, sentiment-analiz, narrativ tahlil, interpretativ jamoalar, onlayn platformalar.

## ПРИНЦИПЫ АНАЛИЗА ЧИТАТЕЛЬСКИХ ИНТЕРПРЕТАЦИЙ НА ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМАХ

Аннотация

В статье рассматриваются принципы анализа интерпретаций читателей на онлайн-платформах. Исследование основано на теориях цифрового социального чтения (DSR), литературоведческой Retseptiv poetikatraditsii, а также методах компьютерной лингвистики по обработке пользовательских комментариев. Анализируются особенности формирования коллективной интерпретации на платформах Goodreads, Wattpad и новостных сайтах, эмоциональная динамика комментариев, роль «интерпретативных сообществ» и методы машинного анализа: контент-анализ, дискурс-анализ, sentiment-анализ, построение нарративных сетей и классификация комментариев с использованием глубокого обучения. Делается вывод о том, что сочетание гуманитарных и вычислительных методов повышает точность исследования читательских откликов.

**Ключевые слова:** Цифровое социальное чтение, отклики читателей, sentiment-анализ, нарративные сети, онлайн-платформы.

## PRINCIPLES OF ANALYZING READERS' INTERPRETATIONS VIA ONLINE PLATFORMS

Annotation

This article examines the principles and methods for analyzing readers' interpretations on online platforms. It draws upon digital social reading (DSR) research, Retseptiv poetikatheory, and computational linguistic approaches to user-generated content. The study investigates how interpretive communities form on platforms such as Goodreads, Wattpad, and online news comment sections, how emotional and narrative structures emerge in readers' comments, and how these can be modeled through content analysis, discourse analysis, sentiment analysis, narrative network modeling, and deep-learning-based classification. The findings demonstrate that integrating qualitative literary approaches with quantitative computational tools provides a comprehensive understanding of reader interpretation in digital environments.

**Key words:** Digital social reading, reader interpretation, sentiment analysis, narrative networks, online platforms.

**Kirish.** Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti kitobxonlik madaniyatining yangi ko'rinishini shakllantirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, Goodreads va Wattpad kabi o'qish platformalari kitobxonlarning sharhlari, reaksiyalari va talqinlarini ommaviy ravishda kuzatish imkonini yaratdi. Pianzola [9] buni "kitob o'qish jarayonida yuzaga keladigan tajribalarni onlayn muhitda almashish shakli" deb belgilaydi.

DSR- raqamli ijtimoiy mutolaaning ilk tadqiqotlari Leveratto va Leonsini tomonidan olib borilib, internet o'qish jarayonining yangi ijtimoiy shakllarini yaratgani ta'kidlangan [7]. Cordón-García va boshqalar ijtimoiy o'qishni "Gutenberg parentesi" nazariyasi bilan bog'lab, raqamli o'qish madaniy jihatdan bosqich almashinuvi ekanini ko'rsatadi [2].

Montesi ijtimoiy o'qish saytlarini kitoblarning individual va ijtimoiy ta'sirini real kuzatish mumkin bo'lgan

eng qulay maydon sifatida baholaydi [8]. Rehfeldt esa onlayn sharhlar professional adabiy tanqiddan ko'ra kitobxonning haqiqiy ta'sirini aniqroq aks ettirishini ta'kidlaydi [11]. Ijtimoiy o'qish platformalari kitobxonning subyektiv kechinmalari, obrazlarga munosabati, syujetni qayta qurishi va umumiy emotsional jarayonlar to'g'risida boy ma'lumot beradi. Pianzola va Rebora sentiment tahlili asosida asardagi emotsional dinamikalar bilan sharhlar kayfiyati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik borligini ko'rsatadi [10].

Retseptiv poetika nazariyasi (Rosenblatt, Iser, Fish)ga ko'ra, matnning mohiyati matnning o'zida emas, balki o'quvchi tomonidan yaratiladi. Rosenblatt o'qishni "o'quvchi va matn o'rtasidagi tranzaksiya" deb belgilaydi [12], Karolides esa bu jarayonni "o'quvchi va matnning bir-biriga ta'siri orqali ma'no yaratish" deb ta'riflaydi [6]. Fishning "interpretativ

hamjamiyatlar” konsepsiyasi esa ijtimoiy o'qish platformalarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi — matn talqini o'quvchining madaniy pozitsiyasi bilan belgilanadi (Fish 1980).

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Retseptiv poetikanazariyasi klassik markazli yondashuvlardan farqli ravishda talqinning markaziga kitobxonni qo'yadi. Rosenblatt, Iser va Fish kabi nazariyotchilar o'qish jarayonini “o'quvchi va matn o'rtasidagi tranzaksiya” sifatida izohlaydilar. O'rganilgan ilmiy manbalarga ko'ra “Reader Response Methods” :-har bir kitobxon matndan o'ziga xos ma'no chiqaradi;-hech bir talqin yagona va mutlaq emas, chunki o'quvchi faol ma'no yaratuvchi subyektdir;-o'qish jarayoniga o'quvchining madaniy, psixologik va tajribaviy omillari kuchli ta'sir qiladi. Rosenblatt o'qishni passiv jarayon emasligini, balki o'quvchining hayotiy tajribasi orqali matnga ma'no yuklashini ta'kidlaydi: “O'quvchilar matnni qayta yaratadilar” [13]. Karolides talqinni “o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni” sifatida ta'riflaydi va bu jarayon har bir o'quvchi uchun o'ziga xos ekanini qayd etadi [6].

Onlayn platformalardagi sharhlar Retseptiv poetikanazariyasini amalda tasdiqlaydi. Goodreads kabi platformalardagi sharhlar kitobxonlarning: obrazlarga bergan qiymatlari, syujetni tushinishdagi farqlari, o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib bergan subyektiv talqinlari asosida kollektiv interpretatsiya tarmog'ini yaratadi. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, hatto bir xil qahramonga berilgan qarama-qarshi fikrlar ham “kollektiv xarakter kompleksligi modeli”da aks etadi. Bu jarayon Retseptiv poetikanazariyasining amaliy tasdig'idir: o'quvchilar matndan o'z dunyoqarashlari asosida ma'no yaratadilar va bu ma'nolar boshqalar bilan baham ko'rilganida yangi ijtimoiy-madaniy talqinlar paydo bo'ladi.

Digital Social Reading (DSR) — bu kitobxonlarning onlayn muhitda sharh yozish, fikr bildirish, baho qo'yish, izohlar qoldirish, layk va repostlar qilish, shuningdek, o'zaro munozaralarda ishtirok etishi orqali shakllanadigan ijtimoiy o'qish jarayoni hisoblanadi. Pianzola va hamkorlar DSRni “kitob o'qish jarayonida yuzaga keladigan individual tajribalarni raqamli platformalarda ommaviy almashish va talqin qilish amaliyoti” sifatida tavsiflaydi [10]. Goodreads, Wattpad, Amazon Reviews, LitRes, LibraryThing va boshqa ijtimoiy o'qish platformalarida kuzatiladigan faol talqin jarayonlari kitobxonlarning o'zaro munosabatlari orqali kollektiv interpretatsiya hamjamiyatini vujudga keltiradi. Natijada, sharh yozgan har bir kitobxon “tasavvur qilingan talqin hamjamiyati”ga qo'shiladi, bu hamjamiyat esa izohlar, bahslar va o'zaro fikr almashinuvi orqali umumiy interpretatsion makonni yaratadi [4].

Ko'plab olimlar DSR tadqiqotlarini tizimlashtirish maqsadida uning asosiy yo'nalishini quyidagicha ajratib ko'rsatadi:

O'qish tajribasining raqamli tahlili — kitobxonlarning sharhlaridagi emotsional, estetik va kognitiv reaksiyalarni aniqlash.

Ijtimoiy o'qish platformalarining arxitekturasini o'rganish — platformalarning texnologik dizayni, sharhlar algoritmlari, reyting tizimlari kitobxon talqiniga qanday ta'sir qilishini tadqiq etish.

Sharhlarning affektiv xususiyatlarini tahlil qilish — izohlardagi emotsiyalar, subyektiv reaksiyalar, obrazlarga munosabatlar.

Sharhlarning ideologik qatlamini o'rganish — kitobxonlar izohlarida aks etgan ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy pozitsiyalarni tahlil qilish.

Kitobxonlararo o'zaro ta'sirlar — bahslar, izohlar zanjiri, kollaborativ talqin va kollektiv ma'no yaratish jarayoni.

Ushbu yo'nalishlar “Social reading sites...” nomli ilmiy maqolaning asosiy g'oyalari bilan hamohang bo'lib, unda sharhlarning “kollektiv interpretatsion tarmoq” sifatida shakllanishi, kitobxonlar tomonidan qahramonlar va syujetning turlicha talqin qilinishi hamda bu talqinlarning umumiy tizimga qo'shilishi chuqur tahlil qilingan [4]. Shuningdek, tadqiqotda kitobxonlarning turlicha qarashlari va obrazlar haqidagi o'ziga xos baholari yakunda “kollektiv xarakter kompleksligi”ga aylanishi ko'rsatiladi [4].

Goodreads kabi ijtimoiy o'qish platformalaridagi sharhlar odatda quyidagi elementlardan tuziladi: qisqa mazmunlar, syujetning markaziy epizodlari, asosiy personajlarga oid baholashlar va kitobxonning umumiy taassuroti. “Social reading sites...” hujjatidagi tadqiqotda sharhlar syujet elementlari, obrazlar munosabatlari va muallifning stilistik jihatlari bo'yicha talqinlarning turlicha shakllanishini ko'rsatadi. Kontent-analiz orqali aniqlanadigan jihatlar: Eng ko'p uchraydigan mavzular — sharhlardagi asosiy tematik yo'nalishlar; Personajlarga nisbatan munosabat — qahramonlarning qabul qilinishi va emotsional bahosi; Syujet talqinlaridagi farqlar — sharhlardagi voqealar ketma-ketligi, urg'ular va talqinlar xilma-xilligi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Diskurs tahlilida ko'plab tadqiqotchilar o'z ilmiy qarashlarida DSRning sharhlar diskursini ijtimoiy, ideologik va axloqiy pozitsiyalarni ochib beruvchi manba sifatida tahlil qiladi. Tadqiqotda kitobxonlar sharhlarida aks etadigan: ijtimoiy-ideologik qarashlar, madaniy kontekstlar, axloqiy baholar muhim diskurs elementlari sifatida tasniflangan [9]. Sharhlarning stilometrik va leksik xususiyatlarini ham tahlil qilish orqali ijtimoiy pozitsiyalar yanada aniqroq ochib beriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar tomonidan qayd etilgan “emotsional fokus”, “tanqidiy masofa” kabi diskurs markerlari turli ideologik nuqtalarni bildiradi.

Sentiment tahlili. DSR (digital social reading) kontekstida sentiment tahlili ko'pincha reytinglar (yulduzlar) bilan birga o'rganiladi. O'rganilgan ilmiy ishlarining mualliflari ta'kidlaganidek, onlayn kitob sharxlari (online book reviews) korpusida: -5 yulduzli (eng yuqori) bahoga ega sharhlarda ijobiy sentiment ustun; -4 yulduzli sharhlarda esa, intuitiv “pozitiv” bo'lishi kutilsa-da, matnda ko'proq “differensial tanqidiy kayfiyat” (ya'ni, ijobiy va tanqidiy elementlar aralash) kuzatiladi; -1-3 yulduz oralig'idagi sharhlar esa odatda salbiy leksika bilan boy bo'ladi. Mualliflar SentiWS lug'ati asosida polar sentiment (pozitiv/negativ so'zlar chastotasi)ni reytinglar bilan solishtirib, kutilgan “to'g'ri proporsional” moslikdan ko'ra murakkabroq tuzilma borligini ko'rsatadilar: -5 yulduz — juda kuchli pozitiv leksika, intensifikatorlar (“juda zo'r”, “ajoyib”, emotsional undovlar); -4 yulduz — ehtiyotkor tanqidiy ifodalar (“ba'zi joylari sust bo'lsa-da...”, “shunga qaramay...”); -1-3 yulduz — salbiy so'zlar va kamchiliklarni sanash ustun. Bu natija odatiy “online reytinglar odatda haddan tashqari ijobiy bo'ladi” degan stereotipni qayta ko'rib chiqishga undaydi: dastlabki ko'rinishda 3-4 yulduz “normal/ijobiy” tuyulsa-da, kitobxonlar tilida ular sezilarli darajada tanqidiy va salbiy sentimentga moyil bo'lishi mumkin.

Raqamli ijtimoiy mutolaa -Digital social reading sharhlarida sentiment tahlili yordamida: -Kitobning emotsional qabul qilinish xaritasini tuzish (qaysi bo'limlar/obrazlar ko'proq bahs va emotsiya uyg'otadi). Kitob tavsiyasi tizimlarini takomillashtirish — foydalanuvchiga nafaqat reyting, balki emotsional ohangi o'xshash sharhlar asosida tavsiya berish. -Adabiy tanqid va kitob marketingida kitobning haqiqiy qabul qilinishini empirik ko'rsatish. - Moderatsiya va xavfsiz muhit uchun toksik va nafrat nutqini filtr qilish [1].

**Badiiy tarmoq tahlili.** Raqamli ijtimoiy mutolaa-Digital Social Reading (DSR) tadqiqotlarida badiiy tarmoq

tahlili (narrative network analysis) kitobxon sharhlarida aks etgan voqealar, obrazlar va syujet elementlarini strukturaviy, grafik va ketma-ketlik asosida tahlil qilish metodidir. Bu yondashuv kitobxonlarning matni qanday eslashi, qayta qurishi va muhim deb topgan voqealarni qanday tartibda joylashtirishini aniqlash imkonini beradi. Goodreads sharhlari oddiy matn bo'lib tuyulsa-da, ular ichida: syujet fragmentlari, voqealar ketma-ketligi, qahramonlararo munosabatlar, syujet chiziqlari bo'yicha kitobxon urg'ulari, metadiskursiv elementlar (muallif, film adaptatsiyalari, boshqa asarlar bilan qiyoslar) kabi murakkab narrativ birliklar yashiringan bo'ladi. Shu sababli sharhlar yig'indisi tasodifiy matn emas — balki jamoaviy qayta hikoyalash (collective retelling) modeli hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** “Social reading sites...” nomli ilmiy maqolaga ko'ra syujetni qayta tiklashning innovatsion yondashuvi aynan kitobxon sharhlaridan syujetni avtomatik qayta tiklash uchun ishlab chiqilgan va quyidagi bosqichlarni bajaradi:

Sharhlardan voqealarni ajratadi – kitobxon eslagan syujet bo'laklari matndan aniqlanadi.

Ularni aktantlar (personajlar yoki syujet birliklari) bilan bog'laydi – qaysi obraz yoki qaysi syujet chizig'i haqida gap ketayotgani belgilanadi.

Sharhlardagi voqealar tartibini aniqlaydi – har bir sharhdagi “voqealar oqimi” umumlashtiriladi.

Turli kitobxonlarning voqealar ketma-ketligini birlashtiradi – bunda ma'lumotlar tozalab, o'xshashliklar bo'yicha agregatsiya qilinadi.

Yakunda syujetning kollektiv modelini yaratadi – kitobxonlar qanday syujetni eslagan va qanday tartibda uni “qayta tuzgan” bo'lsa, o'sha model grafik tarmoq ko'rinishida qayta tiklanadi. Tadqiqot mualliflari ushbu jarayonni “reader-generated narrative framework” deb ataydi — ya'ni, syujetning kitobxonlar tomonidan qayta yaratilgan modeli.

Fishning “interpretive communities”-tahlil qiluvchi jamiyatlar konsepsiyasi onlayn kitobxonlar xatti-harakatida aniq ko'rinadi [3]. Goodreads sharhlari asosida umumiy syujet talqinlari, personajlarga nisbatan kollektiv munosabat, kitobxonlararo dialoglar shakllanadi [4].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, onlayn platformalar kitobxon interpretatsiyasini chuqur va ko'p qirrali o'rganish uchun noyob maydon yaratadi. DSR fenomeni, Retseptiv poetikayondashuvi va kompyuter lingvistik metodlar uyg'unligi orqali kitobxonlik jarayoni haqidagi ilmiy xulosalar yanada aniqroq shakllanadi. Ushbu maqolada kontent-analiz, diskurs tahlili, sentiment-analiz, narrativ tarmoq modellari va chuqur o'rganish usullarining kitobxon talqinini tadqiq etishda samarali ekanligi asoslab berilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Cordon-Garcia J. A. and Gomez-Diaz R. (eds.) (2019). *Lectura, Sociedad y Redes. Colaboración, Visibilidad y Recomendación En El Ecosistema Del Libro*. Madrid: Marcial Pons.
2. Cordon-Garcia J.-A. et al. (2013). *Social Reading*. Oxford: Chandos.
3. Fish, S. (1980). *Is there a text in this class?* Cambridge: Harvard UP.
4. Holur, Pavan; Shahsavari, Shadi; Ebrahimzadeh, Ehsan; Tangherlini, Timothy R.; Roychowdhury, Vwani (2021). Supplementary material from "Modelling social readers: novel tools for addressing reception from online book reviews". The Royal Society. Collection. <https://doi.org/10.6084/m9.figshare.c.5754141.v1>
5. Iser, W. (1978). *The act of reading: A theory of aesthetic response*. Baltimore, MD: Johns Hopkins UP.
6. Karolides, N. (1992). Reader-response in the classroom. In N. Karolides (Ed.). *The transactional theory of literature* (pp. 21-32). NY: Longman.
7. Leveratto J.-M., Leontsini M. (2008). *Internet et la sociabilité littéraire*. Éditions de la Bibliothèque publique d'information. doi:10.4000/books.bibpompidou.197.
8. Montesi M. (2015). La lectura en las redes sociales: posibilidades de análisis para el investigador. *Revista Ibero-Americana de ciencia da informacao*, 8(1): 67–81.
9. Pianzola F. et al. (2019). Digital Social Reading Public Bibliography. doi:10.5281/zenodo.3525468.
10. Pianzola F., Rebora S., Lauer G. (2020). Wattpad as a resource for literary studies. Quantitative and qualitative examples of the importance of digital social reading and readers' comments in the margins. *PLoS One*, 15(1). doi:10.1371/journal.pone.0226708
11. Rehfeldt M. (2017). *Leserrezensionen als Rezeptionsdokumente. Zum Nutzen nicht-professioneller Literaturkritiken Für Die Literaturwissenschaft*. In Bartl A. and Behmer M. (eds.), *Die Rezension. Aktuelle Tendenzen Der Literaturkritik*. Würzburg: Königshausen & Neumann, pp. 275–89.
12. Rosenblatt, L. (1983). *Literature as exploration* (4th ed.). NY: MLA.
13. Rosenblatt, L. (2002). *Literary theory*. In J. Flood, D. Lapp, J. Squire, and J. Jensen (Eds.), *Handbook of Research on Teaching the English Language Arts* (pp. 67-73). Mahwah, NJ: Erlbaum.